

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

*60410300 – Soliqlar va soliqqa tortish
bakalavriat ta'lif yo'naliishining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil «25» iyun dagi 218-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsif	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. Umumiy tavsifi

60410300-Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi *60410300-Soliqlar va soliqqa tortish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlari (sillabus)ni ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

60410300-Soliqlar va soliqqa tortish bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi – iqtisodiyot va moliya sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u o‘z ichiga soliq xizmati organlari tizimida soliq ma’murchilagini tashkil etish, moliya organlarida soliqlarni boshqarish, rejallashtirish va prognoz qilish, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarda, soliq maslahati tashkilotlarida soliq maslahati xizmatlarini ko‘rsatish, ilmiy – tadqiqot muassasalari va jamoat birlashmalari, davlat boshqaruv organlari, soliq madaniyatining funksional tizimlarini ishlab chiquvchi va targ‘ib qiluvchi birlashmalar, jamg‘armalarning faoliyat ko‘lamini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Soliq xizmati organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi soliqqa oid munosabatlari, soliq-budget tizimi, soliq ma’murchiligi, soliq nazorati, soliq maslahati hamda soliq hisobotidagi jarayonlar majmuasi hisoblanadi.

60410300-Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilarini fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, Soliq qo‘mitasi, viloyat soliq boshqarmalari, tuman soliq inspeksiyalari, soliq

maslahatchisi va boshqa turdag'i moliya-kredit muassasalarida faoliyat yuritishlari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, xalqaro moliya-kredit tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60410300-Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda soliqqa tortish jarayoni bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

soliq ma’murchiligiga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish hamda tizimlashtirish;

soliqlar va soliqga tortish jarayonidagi muammoli mavzular bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda gatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

soliq xizmati organlari ishini tashkil qilish va faoliyatini boshqarish;

soliq ishini tashkil etish uchun zarur bolgan shart-sharoitlarni yaratish va resurslarni rejalashtirish;

innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda soliq ma’murchilagini tashkil etish;

innovatsion axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chigarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

soliq solish amaliyotida yuz bergen muammolarni yechish yo‘llarini izlash, ilg‘or tajriba va sinalgan metodlarni amaliyotga tatbiq etish;

xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida unga ma’lum bolgan xizmat sirlari va boshqa ma’lumotlarni, shuningdek davlat sirlarini saqlash, ularning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasi tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

yuridik va jismoniy shaxslarning soliq solish va soliq qonunchiligi buzilishi masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish;

fuqarolarning og‘zaki va yozma murojaatlarini, shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqish va qonuniy tartibda hal etish;

soliq to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shubhali soliq to‘lovchilarni aniqlash;

nazorat qiluvchi organlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha ishlarini muvofiqlashtirish;

soliq tekshiruvlarini o‘tkazish, soliq to‘lovchilarning moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish, buxgalteriya hisoblari, statistik, soliq va moliyaviy hisobotlar haqqoniyligini tekshirish;

pul mablag‘larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish choralarini amalga oshirish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining bank kassalariga o‘z vaqtida va to‘liq topshirilishi yuzasidan soliq tekshiruvlarini tashkil qilish;

savdo va xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, shu jumladan nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to‘lovlarni qabul qilib olish bo‘yicha hisob-kitob terminallarini qo‘llanish, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan qisqa muddatli tekshirishlarni o‘tkazish;

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtomobilarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlarini aniqlash va oldini olish, ularning hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan, kontrafakt yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashishni tashkil etish;

soliq sohasida huquqbazarlikka yo‘l qo‘yan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan moliyaviy va boshqa jazo choralarini qo‘llashni ta’minalash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

tashkilot mablag‘laridan samarali foydalanish, ularni nazorat qilish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishslash va tahlil qilish;

buxgalteriya hisobi xizmati va audit faoliyatni rejallashtirish va monitoring qilish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki nazorat tizimini yaratish va uning samarali ishslashini ta’minalash;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejallashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishslashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

tashkilot hujjatlashtirish va hujjatlar aylanishini raqamlashtirish, turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

tashkilot investitsiyalari samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

Tadbirkorlik faoliyatida:

innovatsiyaga asoslangan yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; biznes yuritish natijalarini asosida shakllangan hisobotlarni tegishli davriy naşrlarga taqdim etish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish;

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

davlat budgeti, davlat budgetining daromadlari va xarajatlari, mahalliy budget, bozor iqtisodiyotining mohiyati va belgilari, milliy iqtisodiyot va uning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli;

xo‘jalik hisobining mazmuni, vazifasi va ahamiyati, buxgalteriya hisobining predmeti va metodi, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, uning tuzilishi va mazmuni, schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, hujjatlashtirish va inventarizatsiya, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobining registrlari va shakllarining asosiy tushunchalarini o‘zlashtirish;

bozor iqisodiyoti sharoitida statistik ko‘rsatkichlarni baholash, tahlil va talqin etish bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lish, MHTning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning ko‘rsatkichlarini aniqlash, mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarni bilishi, tanlama kuzatish mohiyatini va uni qollash sabablari va afzalliklarini aniqlash haqida malakalariga ega bo‘lish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning operatsion faoliyatiga baho berish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni tahlili va budgetlashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga baho berish, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar kreditga layoqatlik holatiga baho berish, tarmoqlarda tahlil xususiyatlari bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

boshqaruv usullaridan foydalanish, menejment texnologiyasini tashkil etish, boshqaruv jarayoni va vazifalarini belgilash, boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalardan foydalanish, tashkilotning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish, korxona salohiyatini boshqarish, zamonaviy marketing konsepsiyanini tatbiq etish, marketing kommunikatsiyasi elementlaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

soliq nazariyasini, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini, shu jumladan soliq

solist obyektlari va subyektlari, soliq solishning prinsiplari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tizimini, soliq munosabatlari subyektlarining huquq va majburiyatlarini bilish;

soliqlar va boshga majburiy to‘lovlarni prognoz qilish, hisoblash, budgetga undirish, imtiyozlarni qo‘llash tartiblari va usullaridan foydalana bilish;

soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish;

tadbirkorlik subyektlarini soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatga olish va ular bo‘yicha yagona reestr yuritish, soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish, xo‘jalik subyektlari moliya-xo‘jalik faoliyatining hujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish va o‘tkazish tartiblari, soliqqa oid huquqbazarliklar bo‘yicha ma’muriy amaliyot yuritish, soliq qarzi bo‘yicha undiruvni soliq to‘lovchi molmulkiga qaratish, davlat soliq xizmati organlarida ijro intizomi va fuqarolar murojaatlari hamda ularni ko‘rib chiqish tartibining nazariy jihatlarini o‘zlashtirish;

xo‘jalik yurituchi subyektlarning soliq qarzi summalari hamda debitor-kreditor qarzlarining kelib chiqish sabablarini, soliq elementlarining soliqlar prognoziga ta’sirining tahlilini, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishi nazoratining huquqiy asoslarini, xo‘jalik subyektlari faoliyati bo‘yicha davlat nazoratining tashkil etilishi asoslarini amalda qo‘llay olish;

auditorlik tekshiruvini rejorashtirish va tashkil etish, auditning xalqaro standartlari asosida muhimlik va risk darajalarini aniqlash, auditning xalqaro standartlari asosida ichki nazorat tizimini o‘rganish va baholash, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzish bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

zamonaviy axborot-kommunkatsiya texnologiyalarining nazariy, amaliy va huquqiy asoslarini bilish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT11106	Xorijiy til 1 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	180	6	1
1.05	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	120	4	2
1.06	O‘RT1204	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.07	ITT1105	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	150	5	1
1.08	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.11	AKKK1204	Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.12	FAL2304	Falsafa	120	4	3
1.13	STAT2306	Statistika	180	6	3
1.14	EKMET1305	Ekonometrika	150	5	3
1.15	MIKIQ1305	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.16	MAKIQ1405	Makroiqtisodiyot	150	5	4
1.17	MOL1505	Moliya	150	5	5
1.18	BHK1505	Buxgalteriya hisobi	150	5	5
1.19	SK1305	Soliqqa kirish	150	5	3
1.20	YSHST15610	Yuridik shaxslarni soliqqa tortish	300	10	5,6
1.21	SH1505	Soliq huquqi	150	5	5
1.22	JSHST14510	Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish	300	10	4,5
1.23	BST1605	Biznesni soliqqa tortish	150	5	6
1.24	STD1605	Soliq tizimining dolzarb muammolari	150	5	6
1.25	STP1605	Soliq tushumlarini prognozlash	150	5	6
1.26	SM15610	Soliq ma’murchiligi	300	10	5,6
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	3-7
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	3-7
Kvalifikatsiya		Soliqchi-iqtisodchi			
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalar, o‘quv davri, soliq, soliqqa tortish, soliq tizimi, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlar bloki, oliv ta’lim muassasasi ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  **T. Teshabayev**

2024 yil « 13 » 06



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi

Raisi o'rribbosari  **U.Sadullayev**

2024 yil « 21 » 06



O'zbekiston Respublikasi

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **M. Boltabayev**

2024 yil « 25 » 06

M.O.



**“O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi**

Direktor  **M. Kalonov**

2024 yil “ 14 ” 06

